

**O‘ZBEK XOTIN-QIZLAR ANTROPONIMLARINING SEMANTIK VA
DERIVATSION XUSUSIYATLARI**

Tursunboyeva Gulzoda Bekmirza qizi

NamDPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Dildora Sativoldiyeva

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 22.06.2026

Revised: 23.06.2026

Accepted: 24.06.2026

KALIT SO‘ZLAR:

*onomastika,
antroponim,
antroponimika,
semantika, derivatsiya,
affiksatsiya,
kompozitsiya..*

Maqolada o‘zbek tilidagi xotin-qizlar antroponimlarining semantik va derivatsion xususiyatlari lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Antroponimlarning ma‘no qatlamlari, ularning milliy-madaniy asoslari, yasalish usullari yoritildi.

Til xalqning ma‘naviy boyligi va tarixiy xotirasini o‘zida mujassamlashtiruvchi muhim vositadir. Tildagi atoqli otlar esa jamiyatning ma‘naviy xotirasi, moddiy va ma‘naviy qadryatlarining tarixiy-madaniy aks-sadosi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Atoqli otlarni o‘rganuvchi onomastika bo‘limi tilshunoslikning yirik sohalaridan biri hisoblanadi. Onomastika (yunon. *onomastikē* – nom qo‘yish san‘ati) – atoqli otlarning kelib chiqishi, tuzilishi, semantikasi, ijtimoiy-lingvistik funksiyalari va tarixiy taraqqiyotini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limidir.³⁵ Til tizimida mavjud nomlarning kelib chiqishi, tuzilishi hamda vazifasini onomastika o‘rgansa, uning tarkibida antroponimika shaxs nomlari bilan shug‘ullanadi. Grekcha so‘zdan olingan *antroponim* so‘zi kishilarga berilgan atoqli otlar ma‘nosini anglatadi. Ma‘lim bir tildagi antroponimlar majmui esa *antroponimiya* deb yuritiladi. Tilshunoslikda antroponimlarni tadqiq qiluvchi maxsus soha bo‘lib, u *antroponimika* deyiladi.

Hozirgi tilshunoslikda shaxs nomlarini tizimli o‘rganish masalasi onomastikaning mustaqil va muhim yo‘nalishi sifatida e‘tirof etiladi. Xususan, antroponimika shaxsni

³⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent

nomlash jarayonining lingvistik, ijtimoiy va madaniy asoslarini tadqiq etadi. Antroponimlar til tizimida oddiy leksik birlik sifatida emas, balki jamiyatning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va mentalitetini aks ettiruvchi nominativ birlik sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek tili antroponimik tizimida xotin-qizlar ismlari xalqning go'zallik haqidagi tasavvurlari, ezgulik, nafislik, poklik, mehr-muhabbat kabi qadriyatlarni o'zida mujassam etgani bois alohida semantik va lingvistik qatlam sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Xotin-qizlar antroponimlari erkaklar antroponimlaridan semantik nozikligi, poetikligi va emotsional-eksoressivligi bilan farqlanadi. Shuning uchun ham ularda ko'proq latofat, nafislik, go'zallik, noziklik va boshqa ko'plab ijobiy xislatlar ifodalanadi. Quyida ayrim o'zbek xotin-qizlar ismlarining semantik xususiyatlari tahlili bilan tanishamiz:

1. Go'zallik va latofatni ifodalovchi ismlar.

O'zbek ayol ismlarining katta qismi tashqi go'zallik, husn va nazokatni ifodalashga xizmat qiladi. Bu kabi ismlar xalqning estetik qarashlari bilan bog'liq. Masalan, *Azro (ar.)* – iffatli, nomusli, bokira yoki chiroyli, go'zal, zebo; *Anvara (ar.)* – nurli, jozibali, zebo qiz; toleyi baland qiz; *Annagul (ft.)* – juma kuni tug'ilgan gulday go'zal qiz; *Badiuljamol (ar.)* – eng chiroyli, eng ko'hlik qiz, tengsiz xusn sohibasi; *Barno (ft.)* – aynan: yosh, navjuvon; chiroyli, xushbichim, xushqad; *Dilbar (ft.)* – yoqimli, yoqimtoy, maftun qiluvchi; go'zal, zebo; *Dilrabo (ft.)* – dilni tortuvchi, qalbni maftun etuvchi, jozibali.³⁶

2. Tabiat bilan bog'liq ismlar.

O'zbek tili xotin-qizlar ismlari ichida tabiat hamda o'simlik nomlari asosida hosil bo'lgan ismlar ko'p uchraydi: *Bahora (ft.)* – ko'klamda tug'ilgan qiz yoki bahordek go'zal, ko'rkam qiz; *Nilufar (hind.)* – nilufar (savsan) o'simligidek chiroyli, zebo qiz; *Yulduz (o'z.)* – toleyi yulduzdek yuksak va porloq bo'lsin. Shakllari: *Yulduzxon, Yulduzoy; Rayhona (ar.)* – nozbo'y, rayhondek yoqimtoy qiz; *Oyxon (o'z.)* – oydek go'zal yoki oylarning (qizlarning) eng mo'tabari, sarasi yohud oyli kechada tug'ilgan.³⁷

Bu kabi ismlar tabiat bilan uzviy bog'liq bo'lib tabiatning go'zalligi, hayotbaxshligini ifodalaydi. Xotin-qizlar antroponimlarining tabiat bilan bog'liq semantik ma'no ifodalaydigan turlari orasida "**Gul**" komponentli ismlar go'zallik va noziklik timsoli sifatida ayniqsa mahsuldor hisoblanadi. Masalan, *Gulhayo (ft.-ar.)* – guldek ko'lik hamda odobli, hayoli qiz; *Gullola (ft.)* – loladek, lolaguldek chiroyli qiz, *Gulbahor (ft.)* – bahor guli, ko'klam chechagidek dilbar qiz, bahorda tug'ilgan qiz; *Gulzebo (ft.)* – guldek chiroyli, sohibjamol qiz; *Gulnoza (ft.)* – gul kabi nafis, nozik gul yoki nozli, jilvali gul, yohud go'zal va nozli qiz; *Gulchiroy (ft-o'z.)* – guldek ko'rkam, gulyuzli.³⁸

³⁶ Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси: (изоҳли луғат). — Т.:«Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2007. — 26, 31,32, 43,47,112,114- betlar.

³⁷ О'sha manba — 51, 290, 523, 346, 316- betlar.

³⁸ О'sha manba — 104, 97, 93, 96, 99, 103- betlar.

3. Ezgulik va ijobiy fazilatlarni bildiruvchi ismlar.

Bunday antroponimlarda baxt, iqbol, mehr, vafodorlik, do'stlik, samimiylilik kabi sifatlar o'z aksini topadi. Masalan, *Mehriniso (ft.- ar.)* – ayollarning quyoshi yoki ayollarning eng mehriboni; *Saodat (ar.)* – baxtli, iqbolli, baxtiyor; *Muhabbat (ar.)* – do'stlik, yaqinlik: suyuqli, mehribon qiz; *Sadoqat (ar.)* – vafodor, sodiq,: chin, samimiy do'st.³⁹

4. Orzu-istak va niyatni ifoda qiladigan ismlar.

Albatta, har bir ota-ona o'z farzandiga ism qo'yar ekan unda o'zining orzu-umidlari, istaklarini ham ifodalaydi. Bu kabi ismlar ko'proq pragmatik ma'no ifodalaydi, ya'ni ota-ona bolaning kelajakdagi baxt-saodatini tilab o'z orzu-istaklari zamirida ism qo'yadi. Masalan, *Umida (ar.)* – orzu qilingan, kutilgan qiz; *Orzu(xon) (ft.)* – umid-armon qilib erishilgan qiz.⁴⁰

O'zbek tilshunosligida antroponimika sohasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab ilmiy metodlar asosida faol tadqiq etila boshlandi. Ayniqsa, o'zbek ismlarining etimologiyasi, semantikasi va tuzilishiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar onomastikaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Shunga qaramay, xotin-qizlar antroponimlarining derivatsion xususiyatlarini kompleks tarzda o'rganish bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Antroponimlarning yasalişini o'rganish nominatsiya nazariyasi, so'z yasalişini hamda semantika bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu masala o'zbek tilshunosligida ham dolzarb ilmiy muammo sifatida qaraladi. Tilshunos olim Ernst Begmatov o'zining antroponimikaga bag'ishlangan "O'zbek tili antroponimikasi" nomli kitobida antroponimlarning yasalişini haqida shunday yozadi: "Ismlar tildagi avvaldan mavjud leksemalarga tayangani uchun onomastika, jumladan, antroponimika doirasida yasaliş haqida gapirish ba'zilariga g'ayritabiiy tuyulishi mumkin. Aslida, unday emas. Masalan, o'zbek tilida «to'y» leksemasi mavjud, ammo «To'ychi» ismi bor, «to'yli» leksemasi yo'q, ammo «To'yli» ismi mavjud. O'zbek tilida «tilash, tilamoq» fe'li mavjud, ammo ular asosida «Tilov» (Tilovberdi) shaklli ism yaratilgan. Shuningdek, «sotmoq» fe'lidan hosil qilingan «sotqin» leksemasi xoin yoki sotib bergan kishi ma'nosida ishlatiladi. «Sotqin» ismi esa bolani «sotib olish» udumiga bog'lanadi.

«Yasama» yoki «yasalma» ism deyilganda aslida ikki tip nomlar ko'zda tutiladi: affiksatsiya (morfologik) usulida yasalgan va leksemalarni qo'shish, biriktirish orqali yasalgan (sintaktik usul) nomlar. Biz bu ikki tip ismni alohida-alohida tahlil qilishni lozim topdik. Apellyativ leksikaning ism vazifasiga o'tishi bir necha usullarda amalga oshadi:

1. Fonetik-orfoepik usul.
2. Leksik-semantik usul.
3. Affiksatsiya usuli.

³⁹ O'sha manba — 232, 374, 266, 360- betlar.

⁴⁰ O'sha manba — 446-326-betlar.

4. Sintaktik (kompozitsiya) usuli".⁴¹

Antroponimlarning umumiy yasaliş qonuniyatidan kelib chiqib quyida xotin-qizlar antroponimlarining derivatsion xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Fonetik-orfoepik usulda yasalgan xotin-qizlar antroponimlari. Ushbu usulda ismlarning tilda shaklan ism egasini erkalash-kichraytirish orqali qisqargan shaklga kelib qolishi kuzatiladi. Masalan, Nazish (Nazira), Xoli (Xolida), Umi (Umida), Dilash (Dilbar), Dilish (Dilshoda), Nodish (Nodira), Mohi (Mohira), Dili (Dilnoza) va boshqalar.

Leksik-semantik usulda yasalgan xotin-qizlar antroponimlari. Tilshunoslikda antroponimlarning bu usulda yasaliş tub, sodda, yasama, qo'shma apellyativlarningism vazifasiga tayyor holda transnominatsiya usulida ko'chishidir. Leksik-semantik usulda yasalgan ismlarda apellyativ ismga ko'chganda hech qanday o'zgarishsiz to'g'ridan-to'g'ri ko'chadi va ism sifatida qo'llanadi: muhabbat (apellyativ) va Muhabbat (ism), muqaddas (apellyativ) va Muqaddas (ism), yulduz (apellyativ) va Yulduz (ism), orzu (apellyativ) va Orzu (ism) kabi.

Affiksatsiya usulida yasalgan xotin-qizlar antroponimlari. Bu usulda yasalgan antroponimlarga tildagi leksema hosil qiluvchi qo'shimchalar qo'shiladi va ism nomlash jarayonidagi motivlar asosida hosil qilinadi. Affiksatsiya usulida xotin-qizlar antroponimlarini yasashda asosan -a, -ya, -iya, -mon, -cha affikslari faol ishtirok etadi: Anora, Zilola, Azmiy, Robiya, Zulfiya, Nuriya, Oymon, Qurboncha, Mohicha kabilar.

Sintaktik (kompozitsiya) usulida yasalgan xotin-qizlar antroponimlari. Bu usulda antroponimlar ikki va undan ortiq asosning qo'shilishi natijasida hosil qilinadi: Gulchehra, Mohigul, Fotimayizaxro, Mohichehra, Nurjamol, Dilorom kabilar.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xotin-qizlar antroponimlari o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixi, estetik qarashlari, mentaliteti, milliy va ma'naviy qadryatlarini o'zida mijassamlashtirgan muhim lisoniy birliklardan biri hisoblanadi. O'zbek xotin-qizlar ismlarining semantikasi rang-barang bo'lib, ularda xalqning ijobiy munosabati, madaniyati, dunyoqarashi va an'analari bilan uzviy bog'liq. Derivatsion jihatdan qaralganda, xotin-qizlar antroponimlarining shakllanishida affiksatsiya va kompozitsiya usullari faol qo'llaniladi. Antroponimlarning tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek ismlarining etimologiyasi, semantikasi va tuzilishiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar onomastikaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Shunga qaramay, xotin-qizlar antroponimlarining derivatsion xususiyatlarini kompleks tarzda o'rganish bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

⁴¹ Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. — Toshkent: Fan, 2013. — 4-bob 218-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси: (изоҳли луғат). — Т.:«Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2007. — 608 б.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.
3. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. Ўзбекистон фанларакадемияси. “Фан” нашриёти. Тошкент - 2013.4-боб 218-б.
4. Nazarov N. Antroponimlarning o‘rganilishi. Ilmiy maqola. International Scientific Conference, December 18-19.2021
5. Hakimov X. Antroponimlarning tilshunoslikda o‘rganilish taraqqiyotiga doir. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. SJIF 2023=6.131 / ASI Faktor =1.7. (E)ISSN: 2181-1784. 3(12) Dec.,2023
6. Kadirova X. O‘zbek ismlarining lingvistik tahlili. Ilmiy risola. Toshkent-2023.
7. Tursunboyeva G. O‘zbek tili onomastik tizimida antroponimlar. Ilmiy maqola. Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. Volume 3 Issue 7. <https://phoenixpublication.net/> . Online ISSN:3030-3494.December 2025.
8. <https://arxiv.uz>
9. <https://www.ziyouz.com>